

**Oliy ta’lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish
hamda korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, soha xodimlari,
professor-o‘qituvchilari va talabalarining huquqiy ongi va huquqiy
madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz
munosabatni shakllantirish maqsadida 2024-yilning 1-yarim
yilligida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-sun Farmonida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma’lumotlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ulardan to‘siqlarsiz foydalanishni ta’minalash, shuningdek «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida bir qancha vazifalar belgilangan.

Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganlaridek, korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sinqinlik qiladigan xatarli tahdiddir. Xozirgi kunda bu borada Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

I. Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha:

1. Vazirlikning tizim tashkilotlari va ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning natijalarini e’lon qilish to‘g‘risidagi Yo‘riqnomalar tasdiqlandi. Yo‘riqnomalar korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish bo‘yicha tartibni belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-200-sun Farmoni ijrosi doirasida Davlat oliy ta’lim muassasalarining “Aksilkorrupsiya kovorking” markazlari Konsepsiysi tasdiqlandi.

Mazkur markazlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi jamoatchilik nazorati vazifasini bajaruvchi organ hisoblanadi va quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining natijadorligi va samaradorligi to‘g‘risida yoshlar va aholining xabardorligini oshirish;

- “Korrupsiyaga qarshi xalqaro konvensiya”si, korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etishga oid xorijiy davlatlar tajribasi, shuningdek ushbu yo‘nalishda xalqaro tarjibalarni o‘rganish va uni Markaz a’zolari o‘rtasida muhokama etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi targ‘ibot-tashviqot ishlariga ko‘maklashish va unda talaba-yoshlarning faol ishtirokini ta’minalash;
- ta’lim sohasida shaffoflik va ochiqlikni ta’minalashda oliy ta’lim muassasasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga yaqindan yordam berish;
- talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, “Yoshlar-jamoatchilik monitoringi” kabi ta’sirchan zamonaviy nazoratni amalga oshirishda ko‘maklashish;
- ta’lim sohasida korrupsiyaviy xavflarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etishda yoshlarning roli haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirish;
- ilmiy maqolalar va videoroliklar tayyorlab, mahalliy va respublika ommaviy axborot vositalari orqali ommaga yetkazish;
- Markaz o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiya, forum, seminar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish singari vazifalarni bajaradi.

3. 2024-yilning 4-aprel kuni – vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi, buxgalteriya hisobi va hisoboti, ishlar boshqarmasi, axborot xizmati bo‘limi vakillari, barcha davlat oliy ta’lim muassasalari hamda vazirlikning hududiy boshqarmalari mas’ul xodimlari ishtirokida, oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlarni manzilli va samarali tashkil etish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan seminar tashkil etildi. Seminarda shuningdek, tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi bilan jamoatchilikni tanishtirib borish yuzasidan masalalar muhokama qilindi.

4. 2024-yilning 1-5-may kunlari – Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha “HEMIS” dasturi orqali talabalar va professor-o‘qituvchilar ishtirokida anonim so‘rovnoma tashkil etildi. So‘rovnomada 100 ta davlat oliy ta’lim muassasalari ishtirok etishdi hamda so‘rovnoma ishtirokchilarining bergen ovozlariga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatarlar ko‘rsatkichi bo‘yicha reyting shakllantirildi. Reyting natijalariga ko‘ra, salbiy natija ko‘rsatgan oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi.

Shu bilan birga, Oliy ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish maqsadida “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” ishlab chiqildi.

5. 2024-yilning 17-iyul kuni – Oliy ta’lim muassasalarining birinchi prorektorlari, bo‘lim boshliqlari va xodimlari, dekan o‘rinbosarlari hamda tyutorlar, jami **2.000 ga** yaqin ishtirokchilar bilan “**Korrupsiyaga qarshi kurash**” mavzusida respublika yig‘ilishi o‘tkazilib, unda Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat huquqi, kriminalogiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi professori **Niyozova Salomat Safarovna** hamda vazirlilikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i ma’ruza o‘qib, ishtirokchilarga mavzuga oid masalalar yuzasidan keng ko‘lamli tushuntirishlar, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun qonunchilikda nazardautilgan javobgarliklar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tdi.

6. Vazirlik huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tomonidan “**Korrupsiya: oliy ta’lim uchun yashirin tahdid**” mavzusidagi metodik qo‘llanma ishlab chiqilib, joylarda talabalar, professor-o‘qituvchilar hamda xodimlar tomonidan foydalanish uchun barcha OTMlarga yuborildi. Shu jumladan, soha xodimlari, professor-o‘qituvchilari, talaba-o‘quvchilar hamda keng jamoatchilik orasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish maqsadida, hisobot davrida jami **53**, shundan, televidenieda – 22, radioda – 4, gazetada – 8 va vazirlilikning saytlarida – 19 marotaba turli maqolalar chop etildi.

7. 2024-yilning 1-yarim yilligi mobaynida jismoniy va yuridik shaxslardan vazirlikka kelib tushgan murojaatlarning mazmuni tahlil qilinib, ulardan **60 ga** yaqinida korrupsiyaviy holatlar va manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar to‘g‘risida xabar berilgan va ular yuzasidan o‘rganishlarlar o‘tkazilgan. O‘rganishlar natijalariga ko‘ra, tasdig‘ini topgan holatlar yuzasidan aybdorlarga nisbatan amaldagi qonunchilikka ko‘ra chora ko‘rish maqsadida to‘plangan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilingan.

Shu jumladan, joriy yilning o‘tgan davrida **8 ta** holatda sohaning **3 nafar** xodimi hamda **5 nafar** fuqaro tomonidan korrupsiyaga va tovlamachilikka oid huquqbazarliklar sodir etilgan.

II. Byudjet mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatalishini ta’minalash hamda davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunchilikni ta’minalash bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 12-fevraldagi qo‘shma qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan vazirlik tizimida byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatalishi ustidan monitoring va nazorat tizimi o‘rnatalmoqda.

Jumladan, vazirlik markaziy apparatida “Situatsion markazi” tashkil etilib, mavjud dasturiy majmualar ushbu markazga ulandi va markazlashtirilgan tartibda

ma'lumotlarni yig'ish, ularni jamlash, risk-tahlillari asosida ortiqcha xarajatlar xavfini aniqlash ishlari yo'lga qo'yildi. Vazirlik tizim tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi nazorat qilinmoqda.

III. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida "korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan "YO'L XARITASI" tasdiqlandi. Mazkur "Yo'l xarita"ga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Tizimda korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbarliklarning sodir etilishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish.
2. Oliy ta'lim sohasida kuzatilayotgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tizimli davom ettirish.
3. Vazirlik tizimida ta'magirlik va manfaatlar to'qnashuviga oid holatlarni oldini olish maqsadida "**Korrupsiyasiz soha**" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlarini olib borish.
4. Vazirlik, tizim tashkilotlari va ta'lim muassasalari xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish.
5. Tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'naliشida olib borilayotgan ishlardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borish.
6. Jamoatchilik mexanizmini nazoratini yanada takomillashtirish orqali tizim xodimlarining o'z vazifalariga nisbatan mas'uliyatini kuchaytirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ogohlagini yanada oshirish va boshqalar.